

Mas'uliyat bor joyda birdamlik va ahillik bo'ladi



Mas'uliyat bor joyda birdamlik va ahillik bo'ladi

Respublikamizda Prezidentimiz tomonidan asos solingan “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati doirasida saxovatpesha insonlar va qo‘li ochiq fuqarolarimiz tomonidan ko‘p xayrli ishlar, saxovat amallari bajarilmoqda. Aslida saxovat va ko‘makka har doim intiladigan insonlar yashaydi bu ko‘hna va navqiron zaminda.

Tumanimizning Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig‘inida ayni ro‘zai Ramazon kunlarida xayrli amallar keng quloch yeydi desak, aslo adashmagan bo‘lamiz. Bu borada mahallaning yosh raisi Subhonali Nishonov boshchiligida ko‘p arzirli ishlar amalga oshirildi. Ramazon Hayiti arafasida ham Hazrati Ali, Sarikanda mahalla fuqarolar yig‘ini mutasaddiylari va boshqa mutasaddiy idoralar hamkorligida “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati doirasida ijtioid ko‘makka mo‘htoj, ehtiyojmand oilalar holidan xabar olindi. Bu fuqarolarga go‘sh, tibbiy niqoblar va shirinliklar tarqatildi. Shuningdek, aholi o‘rtasida bu hududda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash bo‘yicha ham keng qamrovli targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borildi.



Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, mahallada saxovatpesha insonlarning safi ham ko'paymoqda. Jumladan, Hazrati Ali mahallasida yashovchi So'hrob Rahmonqulov va Rovon mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat yuritayotgan tadbirkor Isroil Aloviddinovlar tomonidan ham mahallada yashovchi 7 nafar kam ta'minlangan fuqarolar xonadonlariga bepul oziq-ovqat mahsulotlari va tibbiy vositalar bepul yetkazib berildi. Aytish mumkin, tumanning ikkinchi sektorida ham "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida e'tirof etishga loiyq ishlar amalga oshirilayotir.

Qayd qilish lozim, Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini raisi tashabbusi bilan boshqa mahallalarda istiqomat qilayotgan ehtiyojmand oilalar ham bahramand bo'lishmoqda. Ikkinchi sektor rahbari, tuman prokurori F. Abduvaliev tashabbusi ostida sektorning Qal'a mahallasida joylashgan kam ta'minlangan, ayni damda ta'mirlashga mo'htoj bo'lgan fuqaro xonadoniga moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Birinchilardan bo'lib, bu xayrli tashabbusni Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini mutasaddiylari qo'llab-quvvatlashdi. Mahalla nomidan ushbu fuqaro xonadoniga 6 dona terak hadya qilindi.



“Mahalla fuqarolar yig’ini yonidagi binoni eskirib qolgani bois, tuman hokimi roziligi bilan buzib, yangi inshoot barpo etayapmiz. Endi eski bino o’rnida yangi majlislar zali paydo bo’ladi. Mahalla ahli ko’magi va homiylarimizning moddiy yordamlari tufayli bugungi kunda binoning tom qismini yopishga kirishdik” - deydi mahalla raisi Subhonali Nishonov. Aytish mumkinki, mahalla obodonchiligi yo’lida Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig’inida yashovchi aholi bamaslahat, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishayotir. Yangi majlislar zalini tomini yopish uchun fuqarolar Salimjon Hakimov, Shuhratjon Sottiev, Zoitjon Mirzobekov, Habibjon Juraev, Fayziddin Shodiev, Umedjon Sotivoldiev, Ilhomjon Sobirov, Nabijon Shukurov, Ikromjon Shodiev, Badalboy Badalov, Ismoiljon Ayubov va Erkaboy Sa’dulloevlar tomonidan berilgan teraklar kesilib, tayyorlab quyildi.



Ha, agar mahallada birdamlik va ahillik bo'lsa, obodonchilik ishlariga har doim imkoniyat topiladi, chunki hamjihatlik bo'lgan hududda bekorchi ishlarga vaqt yo'q. Bu esa, mahalla raising o'z vazifasi va faoliyatiga mas'uliyat bilan yondoshuviga bog'liq deb o'ylaymiz.